



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




No8(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 312 sahifa,
12-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

The Role of English Collocations, Idiomatic Expressions, and Phraseological Units in Developing Communicative Competence in Higher Education	10
<i>Alimov Jamshid Ravshanovich</i>	
Milliy xoslangan lisoniy birliklarni teglash tamoyillari	16
<i>Yorkulov Zafarjon Bakirovich</i>	
Oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro tushunishning shaxs kognitiv rivojlanishiga ta'sirining psixologik xususiyatlari	20
<i>Vaydulla Madinabonu Muxtasam qizi</i>	
O'qituvchilar darslarni qanday qiziqarli tashkil etishlari mumkin?	26
<i>Dilnura Rustamovna Xamrayeva</i>	
Tarbiya texnologiyasi – talabalarda ilmiy va sinergetik dunyoqarashni shakllantirish omili sifatida	33
<i>Mamadaliyev Kamolidin Rahmatullayevich</i>	
Maktab direktor maslahatchilarida strategik boshqaruv tafakkurini rivojlantirishning psixologik omillari	40
<i>Rahmatova Nasiba Sobirovna</i>	
Umumta'lim maktablarida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini sinfdan tashqari faoliyat orqali takomillashtirishning pedagogik-metodik tizimi	46
<i>Urinbayeva Dilfuza Abdumannobovna</i>	
Integrativ ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish	50
<i>Xoldavlatova Gavhar Normaxmatovna</i>	
Klaster asosida TVET tizimida pedagogik innovatsiyalar	55
<i>Sobir Azizov</i>	
Muammoli ta'lim texnologiyasi orqali talabalarining kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish: "muammo" divergent–konvergent o'quv sikli	57
<i>Djumabayev G'ulomjon Xalillayevich, Yusupov Muxtorbek Roximovich</i>	
Oliy ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya darslarida regbi elementlarini o'rgatishning tashkiliy-metodik asoslar	62
<i>E. E. Jumayev</i>	
Autentik materiallar asosida bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining til ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasining eksperimental samaradorligi	65
<i>Jumayeva Gulxan Amrullayevna</i>	
Aleksandr Nil pedagogik ta'limotida shaxs erkinligini rivojlantirish mexanizmlari: ingliz filologiyasi talabalari misolida	71
<i>Atamirzayev Bahrom Bahodir o'g'li</i>	
TPACK modeli asosida ingliz tilida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning adaptiv metodik tizimi	75
<i>Omonova Maftuna Shermatovna</i>	
Multimodal vizual tayanchlar va flashcard asosidagi topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilidagi og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	82
<i>Sevara Alimurodova, Ayubova Saida</i>	
Raqamlashtirish jarayonida elektron ta'lim resurslarini yaratishning metodik asoslarini takomillashtirish	88
<i>Nurmaxanov Kayrat Erpayizovich</i>	
Modulli ta'lim texnologiyalari orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirishning pedagogik asoslari	95
<i>Poyonova Fazilat Olimovna</i>	
Individual ta'lim sharoitida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash samaradorligini pedagogik tajriba-sinov va matematik-statistik tahlil asosida baholash	100
<i>Gulbaxor Abdullayevna Gaynazarova</i>	



Oliy ta'lim muassasalarida raqamli menejment tizimlarini joriy etish muammolari va ularni bartaraf etishning samarali yo'llari	106
Matnazarov Hurmatbek Egamberganovich	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini boshqarishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	110
Sodiqov Rafikjon Turobjon o'g'li	
Bo'lajak tarbiyachilarning liderlik-boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ...	114
To'xtayeva Dilrabo Nematovna	
Inklyuziv ta'lim: mohiyati, tamoyillari	119
Choriyeva Muxlisa Jumamurodovna	
The Role of Neuromuscular Dentistry in Dental Practice	123
Turayev Alimjan	
Orthodontics' Digital Transformation (Literature Review)	128
Khusanbaeva Jasmin Shavkatovna, Xazratov A. I.	
O'zbekiston SSRda ta'lim islohotlari davrida pedagogika bilim yurtlari faoliyatida o'qituvchilarni tayyorlash jarayonlari va amaliy muammolar	136
Mamatkulova Maxfuza Kozimovna	
Application of Mechanotherapy Techniques in Oral and Craniofacial Surgical Methodologies (Literature Review)	140
Marufova Farangiz Gayratovna	
Theoretical Foundations for Developing Communicative Competence of Future Doctors	147
Nasimova Shahnoza Ziyodullayevna	
Формирование функциональной грамотности и "гибких навыков" (Soft Skills) у учащихся начальных классов в контексте реализации национальной учебной программы Узбекистана	152
Ю. С. Тажиева	
Talabalarda mustaqil ta'lim olish faoliyatini rivojlantirish metodlari	156
Jabborov Toxirjon Maqsudali o'g'li	
Ingliz va qoraqalpoq tillaridagi onim komponentli frazeologizmlarning lingvomadaniy xususiyatlari	160
Koyshekenova Tatyana Kenesariyevna	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi	164
Qo'shaqov Farrux Furqat o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv faollikni oshirishning pedagogik usullari	169
Xoldarova F. M.	
Ingliz tili darslarida ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasi	172
Madaminova Muzifa Shukurullo qizi	
Sport ta'limi yo'nalishidagi o'quvchilarining generativ sun'iy intellekt kompetensiyasini baholash mezonlari va indikatorlarini takomillashtirish	178
Nematova Rushana Nemat qizi	
Inklyuziv ta'lim sharoitida koxlear implantli bolalarning eshituv-nutqiy faoliyatini pedagogik tashkil etish metodikasi	184
Mirzayeva Umida Inamovna	
Umumiy o'rta ta'lim muassasasida ijtimoiy-madaniy muhitni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati	188
Malikova Dilrabaxon	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy-subyektiv pozitsiyasini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	194
Temirova Shoxsanam Komilovna	
O'zbek tilidagi lingvomadaniy kollokatsiyalarning assotsiativ-semantik xususiyatlari	201
Boymirova Dilshoda Oblayor qizi	
Методы развития компетенций будущих учителей начальной школы в области создания текстов	208
Хаитова Нодира Бафроевна	

Inklyuziv maktabgacha ta'limda bolalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvida madaniy-tarixiy va ekologik yondashuvlar integratsiyasi	216
Mengliyeva Gavhar Ibrohim qizi	
Maktabgacha ta'lim jarayonida induktiv metodlardan foydalanishning xorijiy tajribasi	220
Mirazimova Muxabbat Normatovna	
Virtual muzeylar orqali tarixiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik modeli	225
To'ranazarova Muxlisaxon Davlatjon qizi	
Қорақалпоқ, туркман ва инглиз эртақларида образли нутқнинг миллий моделлари: фразеологизм, ранг ва маиший тимсоллар	230
Жепбарова Саят Курбанмиратовна, Жаумитбаева Перийзат Караматдиновна	
Statistical Analysis of Experimental Work and Evaluation of Educational Effectiveness in Teaching Bioethics	233
Salimova Malika Rashidbekovna	
Talabalarda innovatsion fikrlashni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	240
Axatova Sabina Qo'shmurod qizi	
Talabalarda sport kompetensiyasini rivojlantirishga ta'sir etuvchi pedagogik omillar	247
Ismatov Feruz Mamarasulovich	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini integrativ o'qitish zarurati va o'ziga xos xususiyatlari	254
Fayzullayeva Xolida Axmadjon qizi	
Ingliz tilini o'rganishda motivatsiya va o'quvchilarni rag'batlantirish usullarining ahamiyati	258
Sirojov Daler Kironboyevich	
Mikrokredit tashkilotlarini vujudga kelishi va bekor bo'lishining huquqiy asoslari	263
Madumarov Talantbek Tolibjonovich, Qalandarova Mubinabonu Fayziddin qizi	
Oliy ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya jarayonlarini aksiologik modernizatsiyalashning psixologik mexanizmlari... ..	268
Taylanova Sh. Z., Turayeva Dilnoza Niyatullo qizi	
A Methodology for Using Digital Educational Technologies in Preparing Students to Teach Subject-Specific Disciplines in English in Non-Philological Fields of Study	274
Mirzayeva Khilolakhon Bakhromali kizi	
Deviant xulqli o'smirlarda konfliktli xulq shakllanishida ota-ona-farzand munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	281
Otamirzayev Muzaffar Bahodir o'g'li	
Biologiya fanidan auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishning innovatsion metodlari va ularning kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi ahamiyati.....	287
Xalilova Maqsad Ravshanovna	
Leading Schools for Gifted Students: Contextual Demands on the Principal and the Case for Creative Competence	293
Zarina I. Ganiyeva	
Aholi o'rtasida gipodinamiyani (kamharakatlikni) bartaraf etishda o'z-o'zini nazorat qilish usullari	297
Sharipova Faridaxon Akmaljon qizi	
Lobachevskiy geometriyasi: noevklid geometriyaning nazariy asoslari, geometrik xususiyatlari va ta'limdagi ahamiyati.....	301
Namozov Diyorbek Baxtiyor o'g'li	
Adabiyot ta'limi jarayonida nutqiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari	305
Sulaymonova Nafisa Sattorovna	

OLIY TA'LIM TIZIMIDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONLARINI AKSIOLOGIK MODERNIZATSIYALASHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Taylanova Sh. Z.

P.F.D. professor

International School of Finance Technology and Science (ISFT)

Turayeva Dilnoza Niyatullo qizi

International School of Finance Technology and Science (ISFT)

Annotatsiya: Mazkur maqolada globallashuv, raqamli transformatsiya va zamonaviy ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar sharoitida oliy ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya jarayonlarini aksiologik modernizatsiyalashning psixologik mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida yoshlar ongidagi qadriyatlar transformatsiyasi, identifikatsion ziddiyatlar, motivatsion inqirozlar va ma'naviy-psixologik muammolar zamonaviy pedagogik hamda psixologik yondashuvlar asosida o'rganildi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida talabaniy shaxs sifatida shakllanishida emotsional intellekt, psixologik adaptatsiya, reflektiv tafakkur va ijtimoiy mas'uliyat kabi omillarning o'rni ilmiy jihatdan asoslandi. Maqolada aksiologik modernizatsiya jarayonining nafaqat ta'lim mazmuni, balki pedagogik kommunikatsiya, talaba shaxsining ichki motivatsiyasi va raqamli madaniyat bilan bog'liq psixologik holatlarga ham bevosita ta'sir qilishi ko'rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim tizimida qadriyatga yo'naltirilgan ta'lim modelini rivojlantirish, yoshlarning ma'naviy-psixologik barqarorligini mustahkamlash va innovatsion pedagogik mexanizmlarni joriy etishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Aksiologiya, modernizatsiya, oliy ta'lim, psixologik adaptatsiya, qadriyatlar transformatsiyasi, pedagogik innovatsiya, talaba identifikatsiyasi, emotsional intellekt, kognitiv rivojlanish, reflektiv tafakkur, motivatsion mexanizm, raqamli madaniyat.

Abstract: This article examines the psychological mechanisms of axiological modernization of educational and moral processes in the higher education system under conditions of globalization, digital transformation, and contemporary socio-cultural changes. The study analyzes value transformation among youth, identity conflicts, motivational crises, and spiritual-psychological challenges through modern pedagogical and psychological approaches. Particular attention is given to the role of emotional intelligence, psychological adaptation, reflective thinking, and social responsibility in the formation of student personality. The article argues that axiological modernization influences not only the content of education but also pedagogical communication, internal motivation, and the psychological dimensions of digital culture. The findings have significant scientific and practical importance for developing value-oriented models of higher education, strengthening the spiritual and psychological resilience of young people, and implementing innovative pedagogical mechanisms.

Key words: Axiology, modernization, higher education, psychological adaptation, value transformation, pedagogical innovation, student identity, emotional intelligence, cognitive development, reflective thinking, motivational mechanism, digital culture.

Аннотация: В данной статье анализируются психологические механизмы аксиологической модернизации образовательного и воспитательного процессов в системе высшего образования в условиях глобализации, цифровой трансформации и современных социокультурных изменений. В ходе исследования были изучены трансформация ценностей молодежи, идентификационные противоречия, мотивационные кризисы и духовно-психологические проблемы на основе современных педагогических и психологических подходов. Особое внимание уделяется роли эмоционального интеллекта, психологической адаптации, рефлексивного мышления и социальной ответственности в формировании личности студента. В статье обосновано, что процесс аксиологической модернизации оказывает влияние не только на содержание образования, но и на педагогическую коммуникацию, внутреннюю мотивацию личности и психологические аспекты цифровой культуры. Результаты исследования имеют важное научно-практическое значение для совершенствования ценностно-ориентированной модели высшего образования, укрепления духовно-психологической устойчивости молодежи и внедрения инновационных педагогических механизмов.

Ключевые слова: Аксиология, модернизация, высшее образование, психологическая адаптация, трансформация ценностей, педагогическая инновация, идентификация студента, эмоциональный интеллект, когнитивное развитие, рефлексивное мышление, мотивационный механизм, цифровая культура.



KIRISH

XXI asr insoniyat tarixida texnologik taraqqiyot eng yuqori bosqichga ko'tarilgan, biroq insonning ichki ma'naviy dunyosi murakkab ziddiyatlarga duch kelayotgan davr sifatida tavsiflanmoqda. Bugungi global transformatsiyalar sharoitida jamiyatning barcha institutlari, ayniqsa, oliy ta'lim tizimi oldiga yangi va murakkab vazifalar qo'yilmoqda. Endilikda universitet faqat bilim beruvchi yoki kasbiy kompetensiya shakllantiruvchi makon emas, balki insonning aksiologik pozitsiyasi, psixologik barqarorligi va ma'naviy identifikatsiyasini shakllantiruvchi strategik ijtimoiy institutga aylanmoqda. Shu sababli oliy ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya jarayonlarini aksiologik modernizatsiyalash masalasi zamonaviy pedagogika, psixologiya va falsafaning eng dolzarb muammolaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Bugungi yosh avlod mutlaqo yangi axborot makonida shakllanmoqda. Ularning dunyoqarashi endi an'anaviy oilaviy yoki milliy madaniy muhit bilangina emas, balki global raqamli platformalar, ijtimoiy tarmoqlar, sun'iy intellekt algoritmlari va virtual kommunikatsiyalar orqali ham shakllanmoqda. Natijada inson ongida "raqamli identifikatsiya" deb ataluvchi yangi psixologik hodisa paydo bo'lmoqda. Bu jarayonda yoshlarning real ijtimoiy tajribasi bilan virtual hayoti o'rtasida ziddiyat yuzaga kelmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda ideal obraz yaratishga bo'lgan intilish ko'plab talabalarda ichki psixologik bosim, emotsional charchoq va identifikatsion inqirozni yuzaga keltirmoqda. Masalan, UNESCO tomonidan 2023-yilda e'lon qilingan "Global Education Monitoring Report" hisobotida qayd etilishicha, zamonaviy yoshlar orasida "psychological instability" va "value fragmentation" holatlari keskin ortib bormoqda. Tadqiqot natijalariga ko'ra, dunyo bo'yicha talabalarining qariyb 61 foizi o'z kelajagi borasida doimiy xavotir his qilishini bildirgan. OECD ma'lumotlariga ko'ra esa, yoshlarning katta qismi "tezkor muvaffaqiyat" modeliga moslashayotgani sababli uzoq muddatli ma'naviy va ijtimoiy qadriyatlarga bo'lgan ishonch pasaymoqda. Bu holat, ayniqsa, postindustrial jamiyat sharoitida yanada murakkablashmoqda. Chunki zamonaviy texnologiyalar insonning fikrlash tezligini oshirayotgan bo'lsa-da, uning ichki refleksiya qobiliyatini har doim ham rivojlantirmayapti. Talaba ko'proq ma'lumot olayapti, biroq bu ma'lumotlarning ma'nosini chuqur anglashga vaqt va ehtiyoj kamaymoqda. Natijada bilim hajmi ortmoqda, lekin aksiologik barqarorlik zaiflashmoqda.

Bugungi oliy ta'lim tizimidagi eng katta paradokslardan biri shundaki, universitetlar texnologik jihatdan modernizatsiyalashmoqda, biroq insoniylik komponenti ba'zan ikkinchi planga tushib qolmoqda. Talaba sun'iy intellekt bilan ishlashni o'rganmoqda, lekin o'z hissiyotlarini boshqarishni bilmayapti. U murakkab algoritmlarni tushunadi, ammo o'zining ichki ruhiy ehtiyojlarini anglashda qiynalmoqda. Bu esa zamonaviy ta'lim tizimida aksiologik bo'shliq paydo bo'layotganini ko'rsatadi. Masalan, 2022-yilda Yevropa universitetlari assotsiatsiyasi tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda talabalar orasida "emotional exhaustion" darajasi pandemiyadan keyingi davrda 48 foizga oshgani qayd etilgan.

AQShdagi Harvard Graduate School of Education tadqiqotlarida esa yoshlarning katta qismi o'zini "ijtimoiy jihatdan yolg'iz" his qilayotgani aniqlangan. Ayniqsa, virtual kommunikatsiyaning real insoniy munosabatlar o'rnini bosishi psixologik alienatsiya holatini kuchaytirayotgani kuzatilgan. O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ham bu muammo ma'lum darajada sezilmoqda. So'nggi yillarda ta'lim tizimida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, asosiy e'tibor ko'proq akademik samaradorlik, kredit-modul tizimi, xalqaro reytinglar va raqamli texnologiyalar integratsiyasiga qaratilmoqda. Biroq talabaning ichki dunyosi, emotsional barqarorligi va qadriyatlar tizimini shakllantirish masalalari hali ham yetarli darajada konseptual tizimga ega emas.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zining ta'limga oid konseptual chiqishlarida "Yangi O'zbekistonni bilimli va ma'naviy barkamol yoshlar quradi" degan g'oyani bir necha bor ta'kidlagan^[1]. Bu fikr zamonaviy ta'lim siyosatida inson kapitalining faqat intellektual emas, balki aksiologik va psixologik sifatlari ham muhim ekanini ko'rsatadi. Chunki zamonaviy taraqqiyotning asosiy mezon insonning texnik bilimlari emas, uning ma'naviy immunitetidir. Mazkur masalani ilmiy jihatdan o'rganishda ko'plab mahalliy va xorijiy olimlarning nazariyalari muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Abraham Maslow inson ehtiyojlari ierarxiyasi nazariyasida shaxsning o'zini anglash ehtiyoji eng yuqori bosqich ekanini qayd etgan. Carl Rogers esa inson rivojlanishining markazida ichki uyg'unlik va empatiya turishini ta'kidlaydi^[2]. Lev Vygotskiy fikricha, inson tafakkuri va psixologik rivojlanishi ijtimoiy muhit orqali shakllanadi. John Dewey esa ta'limni oddiy bilim uzatish emas, balki ijtimoiy tajriba va demokratik qadriyatlarni shakllantirish jarayoni sifatida talqin qiladi.

Zamonaviy aksiologik yondashuvlarda esa insonning ichki qadriyatlar tizimi global axborot oqimi ta'sirida transformatsiyaga uchrayotgani alohida ta'kidlanmoqda. Ayniqsa, raqamli antropologiya nazariyalari insonning virtual makondagi identifikatsiyasi real ijtimoiy identifikatsiyadan farq qilishini ko'rsatmoqda. Natijada yoshlar orasida "fragmentar ong", "tezkor tafakkur" va "vizual iste'mol psixologiyasi" kabi yangi psixologik holatlar shakllanmoqda^[3]. Mazkur tadqiqotning asosiy muammosi shundan iboratki, zamonaviy oliy ta'lim tizimida bilim berish jarayoni intensiv ravishda rivojlanayotgan bo'lsa-da, talabalarda qadriyatlar tizimini shakllantirish va psixologik barqarorlikni rivojlantirish mexanizmlari yetarli darajada tizimlashtirilmagan.



Talabalar texnologik jihatdan rivojlanmoqda, biroq aksiologik va emotsional jihatdan doim ham barqaror emas. Aynan shu qarama-qarshilik tadqiqotning markaziy muammosini tashkil qiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi - oliy ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya jarayonlarini aksiologik modernizatsiyalashning psixologik mexanizmlarini aniqlash, zamonaviy yoshlar ongidagi qadriyatlar transformatsiyasini tahlil qilish hamda talabalarning ma'naviy-psixologik barqarorligini ta'minlovchi samarali pedagogik modelni ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqot davomida quyidagi ilmiy vazifalar belgilandi:

- zamonaviy yoshlar ongidagi aksiologik transformatsiyalarni aniqlash;
- virtual madaniyatning talaba psixologiyasiga ta'sirini tahlil qilish;
- emotsional intellekt va aksiologik barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish;
- oliy ta'lim tizimida psixologik adaptatsiya mexanizmlarini baholash;
- ta'lim-tarbiya jarayonining aksiologik modelini ishlab chiqish.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda aksiologik modernizatsiya masalasi faqat pedagogik yoki falsafiy muammo sifatida emas, balki psixologik va sotsiomadaniy transformatsiyalar bilan uzviy bog'liq kompleks fenomen sifatida tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada zamonaviy raqamli madaniyat sharoitida talabaning ichki identifikatsiyasi, emotsional refleksiyasi va ma'naviy moslashuv mexanizmlarining o'zaro aloqasi ochib beriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya jarayonlarini aksiologik modernizatsiyalash, shaxsning qadriyatlar tizimini shakllantirish va uning psixologik rivojlanishini ta'minlash masalalari mahalliy hamda xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida turli nazariy-metodologik yondashuvlar asosida o'rganilgan. Mazkur yo'nalishdagi ilmiy qarashlarda shaxsning ehtiyojlari, ichki motivatsiyasi, ijtimoiy muhit ta'siri, emotsional intellekti, qadriyatlar transformatsiyasi va zamonaviy axborot muhitidagi identifikatsiyasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy tadqiqotchilardan A. Maslow shaxsning rivojlanishini ehtiyojlar ierarxiyasi bilan bog'lab, insonning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi va o'zini anglashi shaxsiy rivojlanishning yuqori bosqichi ekanini asoslagan^[2].

C. Rogers esa shaxsga yo'naltirilgan yondashuv doirasida insonning ichki imkoniyatlari, o'zini anglash jarayoni, empatiya va psixologik uyg'unlikning shaxs kamolotidagi ahamiyatini yoritgan^[3]. Ushbu nazariyalar zamonaviy oliy ta'limda talabaning faqat bilim va kasbiy kompetensiyalarini emas, balki uning ichki motivatsiyasi, psixologik barqarorligi va shaxsiy qadriyatlarini ham rivojlantirish zarurligini asoslashda muhim nazariy manba bo'lib xizmat qiladi.

L. S. Vygotsky insonning psixologik rivojlanishi va tafakkurining shakllanishida ijtimoiy muhit hamda o'zaro muloqotning muhim o'rin tutishini ta'kidlagan^[4].

J. Dewey ta'limni bilimlarni oddiy uzatish jarayoni sifatida emas, balki shaxsning ijtimoiy tajribasini boyitish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish va demokratik qadriyatlarni shakllantirish vositasi sifatida talqin qilgan^[5]. Mazkur yondashuvlar ta'lim jarayonining aksiologik mazmunini belgilashda, ayniqsa, talabaning ijtimoiy mas'uliyati va qadriyatga yo'naltirilgan xulq-atvorini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

D. Goleman tomonidan ishlab chiqilgan emotsional intellekt konsepsiyasida insonning o'z hissiyotlarini anglash va boshqarish, boshqalarning emotsional holatini tushunish, empatiya hamda samarali ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish qobiliyatlari shaxs muvaffaqiyatining muhim omillari sifatida tavsiflangan^[6]. Ushbu konsepsiya oliy ta'lim muhitida talabalarning psixologik adaptatsiyasi, akademik stressga bardoshliligi va ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish mexanizmlarini tushuntirish imkonini beradi.

Zamonaviy jamiytdagi qadriyatlar transformatsiyasini o'rganishda Z. Bauman va M. Castellsning ilmiy qarashlari ham alohida ahamiyatga ega. Z. Bauman zamonaviy jamiytdagi ijtimoiy munosabatlar, qadriyatlar va identifikatsiyaning o'zgaruvchan xususiyatlarini "suyuq zamonaviylik" konsepsiyasi orqali izohlagan^[11].

M. Castells esa tarmoq jamiyati sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining insonning ijtimoiy munosabatlari, dunyoqarashi va identifikatsiyasiga ta'sirini tahlil qilgan^[12]. Ushbu ilmiy yondashuvlar raqamli muhit ta'sirida talabalarning qadriyatlari va ijtimoiy identifikatsiyasida yuz berayotgan o'zgarishlarni tushuntirish uchun muhim nazariy asos yaratadi.

Sh. Turkle raqamli texnologiyalar va virtual kommunikatsiyaning insonlararo munosabatlarga ta'sirini tadqiq etib, texnologik vositalar orqali doimiy aloqada bo'lish real ijtimoiy yaqinlikni har doim ham ta'minlamasligini ko'rsatgan^[18]. Tadqiqotchining qarashlari zamonaviy talabalar orasida virtual identifikatsiya, ijtimoiy yolg'izlik, emotsional begonalashuv va raqamli kommunikatsiya bilan bog'liq psixologik holatlarni o'rganishda muhim ahamiyatga ega.



Vizual madaniyat va axborotni idrok etish masalalari J. Berger, R. Arnheim va N. Mirzoeff tadqiqotlarida keng yoritilgan. J. Berger vizual obrazlarning inson dunyoqarashi va ijtimoiy tasavvurlariga ta'sirini o'rgangan [7].

R. Arnheim vizual idrokning psixologik mexanizmlarini tahlil qilib, ko'rish jarayoni inson tafakkuri bilan bevosita bog'liq ekanini asoslagan [8].

N. Mirzoeff esa zamonaviy vizual madaniyat sharoitida insonning axborotni qabul qilish va talqin etish xususiyatlarini tadqiq qilgan [17]. Mazkur yondashuvlar ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalardagi vizual kontentning yoshlar qadriyatlarini hamda psixologik holatiga ta'sirini o'rganishda nazariy ahamiyatga ega.

UNESCO tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ta'limning barqaror rivojlanish, ijtimoiy mas'uliyat, shaxsiy rivojlanish va qadriyatlarni shakllantirishdagi o'rniga alohida e'tibor qaratilgan [15; 16]. Mazkur yondashuvlarda zamonaviy ta'lim faqat akademik bilimlarni egallash bilan cheklanmasdan, balki yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, mas'uliyatli qaror qabul qilish va barqaror qadriyatlar tizimini rivojlantirishga xizmat qilishi lozimligi ilgari suriladi.

Mahalliy yondashuvlarda ham yoshlarning intellektual salohiyati bilan bir qatorda ma'naviy kamoloti, ijtimoiy mas'uliyati va zamonaviy bilimlarni egallashi masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, Sh. M. Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarida ta'lim tizimini rivojlantirish, yoshlarning bilim va salohiyatini oshirish, ularni zamonaviy kasbiy kompetensiyalar hamda yuksak ma'naviy qadriyatlar asosida tarbiyalash masalalari muhim strategik yo'nalish sifatida yoritilgan [1]. Ushbu qarashlar O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ta'lim va tarbiya uyg'unligini ta'minlash hamda yoshlarning intellektual va ma'naviy rivojlanishini bir butun jarayon sifatida tashkil etish zarurligini ko'rsatadi.

Tahlil qilingan ilmiy manbalardan ko'rinadiki, mavjud tadqiqotlarda shaxsning motivatsiyasi, emotsional intellekti, ijtimoiy identifikatsiyasi, raqamli madaniyat, vizual idrok va qadriyatlar transformatsiyasi masalalari ko'pincha alohida ilmiy yo'nalishlar doirasida o'rganilgan. Biroq oliy ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya jarayonlarini aksiologik modernizatsiyalashning psixologik mexanizmlarini kompleks tarzda, ya'ni talabaning qadriyatlar tizimi, emotsional intellekti, psixologik adaptatsiyasi, reflektiv tafakkuri, virtual identifikatsiyasi va raqamli madaniyatini o'zaro bog'liq holda tadqiq etishga ehtiyoj mavjud.

Mazkur tadqiqotning yuqoridagi ishlardan o'ziga xos farqi shundaki, unda aksiologik modernizatsiya faqat falsafiy yoki pedagogik kategoriya sifatida emas, balki psixologik, pedagogik va sotsiomadaniy omillar integratsiyasiga asoslangan kompleks jarayon sifatida o'rganiladi. Tadqiqotda zamonaviy raqamli muhit ta'sirida talaba shaxsining qadriyatlar tizimida yuz berayotgan o'zgarishlar uning emotsional holati, psixologik moslashuvi, ichki motivatsiyasi va virtual identifikatsiyasi bilan uzviy bog'liqlikda tahlil qilinadi. Shu jihatdan tadqiqot oliy ta'limda qadriyatga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya modelini takomillashtirish hamda talabalarning aksiologik va psixologik barqarorligini ta'minlash mexanizmlarini aniqlashga yo'naltirilganligi bilan mavjud ilmiy ishlardan farqlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot oliy ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya jarayonlarini aksiologik modernizatsiyalashning psixologik mexanizmlarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda kompleks interdisiplinar metodologik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini aksiologiya, pedagogik psixologiya, ta'lim falsafasi, sotsiologiya hamda zamonaviy madaniyat nazariyalari tashkil etdi. Chunki bugungi globallashuv davrida inson shaxsini shakllantirish jarayoni faqat bilim berish bilan cheklanib qolmayapti; aksincha, insonning ichki qadriyat tizimi, identifikatsion barqarorligi, psixologik himoya mexanizmlari va ma'naviy orientatsiyasi ta'limning markaziy kategoriyalaridan biriga aylanmoqda.

Tadqiqot davomida bir nechta ilmiy metodlardan parallel ravishda foydalanildi. Avvalo, qiyosiy-tahliliy metod orqali Sharq va G'arb oliy ta'lim tizimlaridagi aksiologik transformatsiya modellari o'rganildi. Jumladan, Finlandiya, Janubiy Koreya, Germaniya va Yaponiya oliy ta'lim tizimlarida talabalarning emotsional intellekti, kommunikativ madaniyati va ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirishga qaratilgan dasturlar tahlil qilindi. Ushbu mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatdiki, zamonaviy universitetlar faqat professional mutaxassis tayyorlovchi markaz emas, balki shaxsning psixologik va aksiologik barqarorligini shakllantiruvchi sotsiomadaniy institutga aylanib bormoqda [4].

Tadqiqotning empirik qismi Toshkent shahridagi uchta oliy ta'lim muassasasida olib borildi. Tadqiqotda jami 120 nafar talaba ishtirok etdi. Respondentlarning 68 nafari qizlar, 52 nafari o'g'il bolalar bo'lib, ularning yoshi 18–24 oralig'ida edi. Tanlov jarayonida turli yo'nalishdagi talabalar jalb qilindi: pedagogika, psixologiya, siyosatshunoslik, axborot texnologiyalari va iqtisodiyot yo'nalishlari qamrab olindi. Bu esa tadqiqot natijalarining ijtimoiy reprezentativligini oshirish imkonini berdi. Empirik tadqiqot bir necha bosqichda amalga oshirildi.

Birinchi bosqichda respondentlarning aksiologik orientatsiyasi, ijtimoiy qadriyatlarga munosabati va ma'naviy identifikatsiyasi maxsus sotsiologik so'rovnoma orqali o'rganildi. So'rovnoma 35 ta savoldan iborat bo'lib, unda quyidagi yo'nalishlar qamrab olindi:

- individualizm va kollektivizm darajasi;
- raqamli madaniyatga munosabat;
- an'anaviy qadriyatlarga ishonch;
- virtual identifikatsiya ko'lam;
- akademik stress va emotsional charchoq;
- hayotiy maqsad va motivatsiya darajasi.

Ikkinchi bosqichda psixologik diagnostika metodlari qo'llanildi. Jumladan, Abraham Maslow motivatsiya modeli, Carl Rogersning shaxsga yo'naltirilgan yondashuvi hamda Daniel Golemanning emotsional intellekt konsepsiyasi asosida ishlab chiqilgan diagnostik indikatorlardan foydalanildi^[6]. Talabalarning o'zini anglash darajasi, emotsional boshqaruv qobiliyati va psixologik adaptatsion potentsiali baholandi. Bundan tashqari, tadqiqot davomida kontent-analiz usuli ham qo'llanildi. Talabalarning ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyati, ularning axborot iste'moli, motivatsion kontentga munosabati hamda virtual kommunikatsiya uslublari o'rganildi. Ayniqsa, Instagram, Telegram va TikTok platformalaridagi kontent iste'moli yoshlarning aksiologik orientatsiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatayotgani kuzatildi. Tadqiqot davomida ko'plab talabalar qisqa formatdagi tezkor axborot iste'moliga odatlanib qolganligi va bu holat ularda chuqur reflektiv fikrlashning pasayishiga olib kelayotgani aniqlandi. Fenomenologik metod yordamida esa talabalar bilan yarim strukturaviy intervyular o'tkazildi. Intervyular davomida respondentlarning ichki kechinmalari, ma'naviy bo'shliq hissi, hayotiy maqsadlar borasidagi ikkilanishlari va zamonaviy raqamli muhitdagi psixologik bosim haqidagi fikrlari tahlil qilindi. Ayrim talabalar o'zlarini "doimiy taqqoslash madaniyati" qurboni sifatida his qilishlarini ta'kidladilar. Ya'ni ijtimoiy tarmoqlardagi muvaffaqiyatli obrazlar ularda ichki psixologik bosim va yetarlicha muvaffaqiyatga erishmaganlik hissini shakllantirayotgani kuzatildi. Tadqiqotda statistik tahlil usullari ham qo'llanildi.

Olingan natijalar foiz ko'rsatkichlari, qiyosiy diagrammalar va dinamik indekslar asosida tahlil qilindi. Shu orqali talabalar ongidagi aksiologik transformatsiyaning asosiy tendensiyalari aniqlashtirildi. Metodologik jihatdan muhim xulosalardan biri shuki, bugungi oliy ta'lim tizimida psixologik va aksiologik jarayonlarni alohida emas, balki integrativ tizim sifatida o'rganish zarur. Chunki talabaning bilim olishi uning ma'naviy barqarorligi, emotsional holati va identifikatsion xavfsizligi bilan bevosita bog'liq ekanligi tadqiqot davomida yaqqol namoyon bo'ldi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari zamonaviy oliy ta'lim tizimida talabalarning aksiologik va psixologik holatida murakkab transformatsion jarayonlar kechayotganini ko'rsatdi. Ayniqsa, raqamli madaniyatning kuchayishi yoshlarning qadriyat tizimi, motivatsion orientatsiyasi va ijtimoiy identifikatsiyasiga sezilarli ta'sir qilayotgani aniqlandi. Respondentlarning 67 foizi an'anaviy qadriyatlarni "zamonaviy hayot talablariga to'liq javob bermaydi" deb baholagan. Bu esa yoshlar ongida klassik ma'naviy model bilan global raqamli madaniyat o'rtasida ichki ziddiyat mavjudligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, respondentlarning 54 foizida akademik stress va emotsional charchoq alomatlari kuzatildi. Ayniqsa, doimiy axborot oqimi, yuqori raqobat muhiti va virtual muvaffaqiyat madaniyati talabalarning psixologik barqarorligiga salbiy ta'sir qilayotgani aniqlandi. Tadqiqot davomida eng qiziqarli holatlardan biri virtual identifikatsiya fenomeni bilan bog'liq bo'ldi.

Respondentlarning 61 foizi real hayotdagi obrazidan ko'ra ijtimoiy tarmoqlardagi "raqamli personasi"ga ko'proq e'tibor qaratishini bildirgan. Bu holat yoshlarning o'z "men"ini tashqi vizual tasdiq orqali shakllantirishga urinayotganini ko'rsatadi. Psixologik jihatdan esa bu identifikatsion fragmentatsiya xavfini kuchaytiradi. Empirik kuzatuvlar davomida shunday holatlar ham kuzatildiki, ko'plab talabalar bilim olishni shaxsiy rivojlanish jarayoni sifatida emas, balki "ijtimoiy muvaffaqiyat vositasi" sifatida qabul qilmoqda. Bu esa ta'limning aksiologik mohiyatini zaiflashtirayotgan omillardan biri sifatida namoyon bo'ldi. Talabalarning 48 foizi "diplom shaxsiy rivojlanishdan ko'ra ko'proq iqtisodiy barqarorlik uchun kerak" degan fikrni qo'llab-quvvatladi.

Intervyular davomida ayrim talabalar quyidagi fikrlarni bildirdi:

"Biz ko'p narsani bilamiz, lekin nimaga yashayotganimizni aniq his qilmaymiz."

Mazkur fikr bugungi yoshlar ongidagi ma'naviy-psixologik bo'shliqni juda aniq ifodalaydi. Tadqiqot davomida yana bir muhim tendensiya kuzatildi: talabalarda individual muvaffaqiyatga intilish kuchaygan bo'lsa-da, ijtimoiy birdamlik va kollektiv mas'uliyat hissi pasayib bormoqda. Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, oliy ta'lim tizimida emotsional intellektga oid dasturlar mavjud bo'lgan guruhlarda psixologik moslashuv darajasi yuqoriroq bo'lgan. Masalan, trening va reflektiv seminarlar tashkil etilgan talabalar orasida akademik stress 23 foizga kamroq kuzatilgan. Tadqiqot davomida zamonaviy pedagogik muhitning asosiy muammo-



laridan biri sifatida “tezkor bilim iste’moli sindromi” ham aniqlandi. Ko’plab talabalar uzun matnlarni o’qishga qiziqish kamayganini, qisqa video va vizual kontentni esa ko’proq qabul qilishlarini bildirgan. Bu esa kognitiv fragmentatsiya jarayonining kuchayib borayotganini ko’rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot shuni ko’rsatdiki, zamonaviy oliy ta’lim tizimida aksiologik modernizatsiya masalasi oddiy pedagogik muammo emas, balki chuqur psixologik, sotsiologik va falsafiy transformatsiya jarayonidir. Bugungi raqamli davrda insonning bilim olishi bilan uning ma’naviy barqarorligi o’rtasidagi muvozanat tobora murakkablashib bormoqda. Universitetlar esa endilikda faqat bilim beruvchi institut emas, balki shaxsning psixologik himoya mexanizmlarini shakllantiruvchi muhim ijtimoiy makonga aylanmoqda.

Tadqiqot davomida aniqlangan eng muhim jihatlardan biri shundaki, yoshlar orasida texnologik moslashuv yuqori bo’lsa-da, aksiologik barqarorlik yetarli darajada shakllanmagan. Bu esa ma’naviy identifikatsiya inqirozi, emotsional charchoq va ichki bo’shliq hissining kuchayishiga olib kelmoqda. Shuningdek, tadqiqot natijalari oliy ta’lim tizimida quyidagi yo’nalishlarni rivojlantirish zarurligini ko’rsatdi:

- aksiologik treninglarni joriy etish;
- emotsional intellekt kurslarini kengaytirish;
- psixologik xizmat tizimini kuchaytirish;
- raqamli gigiyena madaniyatini shakllantirish;
- reflektiv fikrlashni rivojlantiruvchi metodikalarni qo’llash;
- virtual identifikatsiya xavflari haqida ma’rifiy dasturlar yaratish.

Eng muhim xulosa shundaki, zamonaviy ta’lim tizimi insonni faqat professional jihatdan emas, balki psixologik va ma’naviy jihatdan ham tayyorlashi kerak. Chunki bilimning o’zi yetarli emas; agar inson ichki qadriyat tizimini yo’qotsa, u axborotga ega bo’lishi mumkin, lekin yo’nalishga ega bo’lmaydi. Shu sababli aksiologik modernizatsiya kelajak ta’limining markaziy strategiyasiga aylanishi zarur. Chunki XXI asrda eng katta muammo axborot tanqisligi emas, balki ma’no tanqisligidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O’zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O’zbekiston” nashriyoti, 2021.
2. Maslow A. H. Motivation and Personality. – New York: Harper & Row, 1954.
3. Rogers C. R. On Becoming a Person: A Therapist’s View of Psychotherapy. – Boston: Houghton Mifflin, 1961.
4. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978.
5. Dewey J. Democracy and Education. – New York: The Macmillan Company, 1916.
6. Goleman D. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. – New York: Bantam Books, 1995.
7. Berger J. Ways of Seeing. – London: Penguin Books, 1972.
8. Arnheim R. Art and Visual Perception: A Psychology of the Creative Eye. – Berkeley: University of California Press, 1974.
9. Kandinsky W. Concerning the Spiritual in Art. – New York: Dover Publications, 1977.
10. Gombrich E. H. The Story of Art. – London: Phaidon Press, 1995.
11. Bauman Z. Liquid Modernity. – Cambridge: Polity Press, 2000.
12. Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell Publishing, 1996.
13. Foucault M. Discipline and Punish: The Birth of the Prison. – New York: Vintage Books, 1977.
14. Freire P. Pedagogy of the Oppressed. – New York: Continuum, 1970.
15. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. – Paris: UNESCO Publishing, 2017.
16. UNESCO. Global Education Monitoring Report. – Paris: UNESCO Publishing, 2023.
17. Mirzoeff N. An Introduction to Visual Culture. – London: Routledge, 2009.
18. Turkle S. Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other. – New York: Basic Books, 2011.
19. Elkins J. What Painting Is. – New York: Routledge, 1999.
20. Hockney D. Secret Knowledge: Rediscovering the Lost Techniques of the Old Masters. – London: Thames & Hudson, 2001.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.